

USKUDARDAGI “O‘ZBEKLAR TAKYASI”NING TA’SIS VAQFNOMASI, UNING DIPLOMATIK VA MAZMUN TAHLILI

Hasan Demirtash

doktor, Turkiya vaqflar

bosh boshqarmasi, tadqiqotchi,

ORCID: 0000-0002-4223-5786,

E-mail: hassandemirtas@gmail.com

ANNOTATSIYA: Tadqiqot doirasida “O‘zbeklar takyasi”ning tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vaqfnomaning diplomatik elementlari o‘rganilib, mazmuni tahlil qilingan. Mavjud manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, zarbxona emini va Marash hokimi vazifasida ishlagan Abdulloh Posho tomonidan 1752–1753 yillarda barpo etilgan “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi – Shayx Abdulloh tomonidan vaqf tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar so‘rovi tashkil etildi va huquqiy jihatdan bunday vaqf mavjud emasligi arxiv hujjatlari asosida aniqlandi.

Shu bilan birga, “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi – Shayx Abdulloh haqida Ayvansaroyiy bergan ma’lumotlar to‘ldirildi. Jumladan, uning to‘liq ismi-nasabi aniqlashtirildi: Sayyid ash-Shayx Abdulloh Akbar Afandi ibn Asadulloh al-O‘zbekiy. Shuningdek, “O‘zbeklar takyasi” uchun mustaqil vaqf ta’sis etilmagani va bu davrda institutsional tarzda qayd etilmagani ham ko‘rsatib o‘tildi.

“O‘zbeklar takyasi” uchun 1788-yilda al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi tomonidan vaqf tashkil etilgani va shu tariqa takyaga huquqiy maqom berilgani qayd etilgan.

Vaqfnoma shartlariga ko‘ra, “O‘zbeklar takyasi” Naqshbandiya dargohi bo‘lib, avvaliga, Samarqand shahrining Qalandarxona mahallasidagi darveshlarga xizmat ko‘rsatganligi, keyinchalik vaqf ta’sischisi Xalil Og‘a vaqf shartlarini o‘zgartirib, boshqa naqshbandiy darveshlariga ham takyada qolish huquqini berganligi qayd etiladi.

Vaqfnomada faqat xayriya binolari ajratilganligi va ularni ta’mirlash, darveshxona shayxlari va darveshlarining xarajatlari kabi vaqf moddiy ehtiyojlarini qoplash uchun hech qanday daromad keltiruvchi narsa vaqf qilinmaganligi, al-Hoj Xalil Og‘a tomonidan tashkil etilgan vaqfning haqiqatda mavjud bo‘lgani – rasmiy hujjatlarda uchramagan biror vaqf manbai bor bo‘lishi mumkinligiga ishora qiladi.

KALIT SO‘ZLAR: O‘zbeklar takyasi, vaqf, Shayx Abdulloh, al-Hoj Xalil Og‘a, Naqshbandiya tariqati

ÜSKÜDAR ÖZBEKLER TEKKESİ KURULUŞ VAKFIYESİ DIPLOMATİK VE İÇERİK ANALİZİ

Hasan Demirtaş

Dr., Araştırmacı,

Vakıflar Genel Müdürlüğü

ÖZET: Araştırma kapsamında Üsküdar Özbekler Tekkesi tarihinde önemli bir yere sahip olan vakfiyenin diplomatik unsurları incelenerek içeriği analiz edilmiştir. Mevcut kaynaklara göre, 1752–1753 yıllarında darphane emini ve Maraş valiliği görevini yürüten Abdullah Paşa tarafından inşa ettirilen Özbekler Tekkesinin ilk şeyhi Hacı Hâce Abdullah’a temlik edildiği, onun ise bu mülkü vakfetteği bilgisi aktarılmış, ancak vakıf kuruluşuyla ilgili bir vakfiye veya bir hüccete ulaşılamadığı kaydedilmiştir.

Aynı zamanda Ayvansarâyî'nin Özbekler Tekkesinin ilk şeyhi Abdullah Efendi hakkında verdiği bilgilere yer verilmiştir. Özellikle şeyhin tam adı bu sayede açıklığa kavuşmuş olmaktadır: *Eş-Şeyh Es-Seyyid Abdullah Ekber bin Es-Seyyid Esedullah el-Özbekî*. Bununla birlikte yazıda o dönemde Özbekler Tekkesi için bağımsız bir vakfın kurulmadığı ve kurumsal olarak tescil belgesine ulaşılamadığına dikkat çekilmiştir.

1788 yılında El-Hac Halil Ağa ibn Ahmed Vakfiyesi ile Özbekler Tekkesi için bir vakıf kurulduğu ve böylece tekke kurumsal kimliğine kavuştuğu belirtilmektedir.

Vakıf şartlarına göre Üsküdar Özbekler Tekkesi bir Nakşibendi dergâhı olup, önceleri Mâverâünnehir'de Semerkand'ın Kalenderhâne Mahallesi'nden olan Özbek dervişlere hizmet etmiş, daha sonra vakfın kurucusu Halil Ağa, vakfın şartlarını değiştirerek tekkede konaklama hakkını diğer Nakşibendî dervişlerine de tanımıştır.

Vakfiye metninde sadece hayrat binaların vakfedilmiş olması ve bu hayrat binaların bakım ve onarım masrafları, tekke şeyhlerinin ve dervişlerinin giderleri gibi, vakfın masraflarını karşılayacak hiçbir gelir kaleminin vakfedilmemiş olması, el-Hâc Halil Ağa tarafından kurulan vakfın fiilen var olan fakat resmî kayıtlarda görünmeyen Özbekler Tekkesinin kurumsal varlığının temini için bir vakıf kurulmuş olabileceği düşüncesini akla getirmektedir.

ANAHTAR KELİMELELER: Özbekler Tekkesi, vakıf, şeyhi Abdullah Efendi, el-Hâc Halil Ağa, Nakşibendîye tarikatı

THE FOUNDING WAQF OF THE “UZBEKLAR TEKKESI” IN USKUDAR, ITS DIPLOMATIC AND SEMANTIC ANALYSIS

Hasan Demirtaş

Dr., Researcher,

Directorate General of Foundations

ABSTRACT: Within the framework of the study, diplomatic elements of the waqfnoma that are important in the history of "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge) were studied and their content was analyzed. According to the available data, a request for information about the establishment of the waqf was organized by Sheikh Abdullah – the first sheikh of "Uzbeklar Tekkesi", which was built in 1752–1753 by Abdullah Pasha, who held the post of emin of the mint and governor of Marash and on the basis of archival documents it was established that legally, such a waqf does not exist.

At the same time, the information provided by Ayvansarai about the first sheikh of “Uzbeklar Tekkesi” – Sheikh Abdullah was supplemented. In particular, his full name and genealogy were clarified: Sayyid ash-Sheikh Abdullah Akbar Efendi ibn Asadullah Al-Uzbeki. It was also indicated that “Uzbeklar Tekkesi” was not established as an independent waqf during this period and was not institutionally registered.

It was recorded for the “Uzbeklar Tekkesi” that in 1788, Al-Hajji Khalil Agha ibn Ahmad Efendi established the waqf and thus granted the tekke (takya) legal status.

According to the terms of the Waqfnoma, “Uzbeklar Tekkesi” is a Naqshbandi dargah (lodge) that first served the dervishes from the Qalandarhan mahalla of the city of Samarkand, and then the founder of the waqf, Khalil Agha, changed the terms of the waqf and granted the right to stay in the tekke to other Naqshbandi dervishes.

The fact that only charitable buildings were allocated to the waqf and that nothing was donated that would generate income to cover the material needs of the waqf, such as their repairs, the expenses of the sheikhs and dervishes, indicates that the waqf created by Al-Hajj Khalil Agha actually existed – perhaps indicating the existence of some source of the waqf that is not indicated in the official documents.

KEY WORDS: "Uzbeklar Tekkesi" (The Uzbeks Lodge), waqf, Sheikh Abdullah, al-Haji Khalil Ogha, Naqshbandi order

Kirish

Uskudarda joylashgan “O‘zbeklar takyasi” haqidagi muhim ma’lumot beruvchi manbalardan biri XVIII asrning ikkinchi yarmida Hofiz Huseyn Ayvansaroyiy (vafoti 1201/1787) tomonidan yozilgan “Hadiqatu’l-javomi” asaridir. Ayvansaroyiy Istanbulning barcha jome masjidlari va namozxonalarini birma-bir kezib chiqib yozgan asarida “O‘zbeklar takyasi”ning asoschisi, uning qurilishi va kengaytirilishi, takyaning

birinchi shayxi va u qaysi tariqatga mansubligi, binoning XVIII asr ikkinchi yarmidagi holati haqida qisqa, ammo muhim ma'lumotlarni beradi:

Sulton tepaligidagi Hoji Xo'ja takyasi masjidi: Uning asoschisi Zarbxona emini¹ bo'lgan va 1168 yilning zulhijja oyida bosh vazirlik kadxudolididan² Mar'ash viloyati hokimi lavozimiga tayinlangan Abdulloh Poshodir. Bu dargohni u 1166yilda qayta qurib va tiklab, Naqshbandiya tariqatida Hoji Xo'ja nomi bilan mashhur bo'lgan Ma'ruf ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Afandiga topshirganlar. 1171-yilda Chaprastli Hasan Ag'a nomli bir kishi butun xarajatlarini o'z zimmasiga olgan holda, nomi zikr etilgan shayx esa moddiy manfaat emas, Alloh taolo yo'lida takyani vaqf qilib, Naqshbandiya tariqatida imomat va xitobatni o'z bo'yinlariga oldi. Keyinchalik bino atrofida qo'shimchalar va kengaytirishlar amalga oshirilib, zoviyayi oliya (takya) holatiga keltirildi. Ushbu takya Sulton tepaligi deb nomlangan mahallada, Mirzo-zoda bog'iga tutashgan joyda, tepalikda dengizga qaragan holda joylashgan bo'lib, Naqshbandiyadan bir kishi hozirgacha po'stnishinlik³ vazifasini bajaradi va xatmi xojagon⁴ davom ettiriladi. Go'zal takyadir⁵.

Ayvansaroyiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, "O'zbeklar takyasi" qurilgan vaqtda uning birinchi shayxi Shayx as-Sayyid Abdulloh Afandi xalq orasida "Hoji Xo'ja / Hoji Xoja"⁶ nomi bilan mashhur bo'lgan. Takya binosi 1166 (1752–1753) yilda dastavval zarbxona emini vazifasida, keyinroq Marash viloyati hokimi vazifasida bo'lgan Abdulloh Posho tomonidan qurilgan va takyaning birinchi shayxi Hoji Xoja Abdulloh Afandiga topshirilgan.

Yana Ayvansaroyiydan aniqlaymizki, faoliyatga kirishgan takyaning xarajatlarini 1171 (1757–1758) yilda Chaprastli Hasan Ag'a ismli shaxs o'z zimmasiga olgan. Ayni paytda takyaning birinchi shayxi Hoji Xoja Abdulloh Afandi o'ziga mulk sifatida topshirilgan takya binosi va hovlisini, qo'shimcha imoratlarini Naqshbandiya tariqati uchun vaqf qilgan, takya ichidagi namozxona ichiga minbar o'rnatib masjidga aylantirgan va uning o'zi bu masjidda imom va voizlik vazifalarini bajargan. Vaqt o'tishi bilan qo'shimcha imoratlar bilan kengayib borgan, dengizga qaragan Sulton tepaligida joylashgan ushbu Naqshbandiya maskanida xatmi xojagon muntazam ravishda o'tkazilgan. Ayvansaroyiy bergan bu ma'lumotlar "O'zbeklar takyasi" haqida yozilgan ilmiy va madaniy tadqiqotlarda bir necha bor takrorlangan⁷.

¹ Zarbxona emini – davlat pullari zarb qilinuvchi zarbxonaing mas'ul amaldori.

² kadxudo – Usmonli davlatidagi amaldorlar va savdogarlar tashkilotlarining ba'zi boshqaruvchilari uchun ishlatiladigan unvon.

³ po'stnishinlik – bir tariqat xonaqohining shayxlik vazifasi; po'stnishin – bir tariqat xonaqohining shayxi bo'lgan shaxs.

⁴ xatmi xojagon – Naqshbandiya tariqatidagi zikrlarning nomi.

⁵ Hofiz Huseyin Ayvosaroyiy. *Hadiqatu'l-javomi*. 2-jild. – Istanbul: Matbaa-i Âmire, 1281. – S. 240.

⁶ "O'zbeklar takyasi" bo'yicha tadqiqotlarda takya uchun "Hoji Xo'ja takyasi" nomi qo'llanilsa-da, bu tadqiqotda "O'zbeklar takyasi" Naqshbandiya tariqatiga mansubligi, bu tariqat tashkil topganidan beri "xojagon" nomi bilan yuritilgani, shuningdek, tariqatga mansub shayx va xalifalar o'zlari uchun "xoja" sifatini qo'llaganliklari hisobga olingan holda "Hoji Xoja takyasi" nomi afzal ko'rildi.

⁷ Salim Yorganjio'g'lu. *Üsküdar Dergâhları*. Nashrga tayyorlovchi Ahmet Yuksel O'zemre. – Istanbul: Uskudar hokimligi, 2004. – S. 108; M. Baha Tanman. *Kalenderhâne. Turkiya Diyonat Vaqfi Islom Ensiklopediyasi*. 24-jild. – Istanbul: TDV nashriyoti, 2001. – S. 249–250; M. Baha Tanman. "O'zbekler Tekkesi". *Turkiya Diyonat Vaqfi Islom Ensiklopediyasi*. 34-jild. – Istanbul: TDV nashriyoti, 2007. – S. 123; Suleyman Beyo'g'lu. *Millî Mücadele ve Özbekler Tekkesi / Uskudar Simpoziumu 1: 23-25 may 2003 – ma'ruza materiallari*, muharrir: Zekeriya Kurshun va b. 1-jild. – Istanbul: Uskudar hokimligi, 2004. – S. 201; Erkan O'vuch. 1341 Defterine Göre 1925'te Üsküdar Tekkeleri // *Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi*. – № 17 / 38. – 2016. – S. 95; Erkan O'vuch. *Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet Tekke İlişkileri*. Doktorlik dissertatsiyasi. – Chanakkale: Chanakkale O'n sakkizinchi mart universiteti, 2022. – 192 s.; Abdullah Qilich.

Ma'lumki, saljuqiylar, bekliklar va usmonlilar davrida ijtimoiy, iqtisodiy va diniy vazifalari bilan bir qatorda muhim madaniyat markazlari hisoblangan takyalar va dargohlar uchun ba'zan davlat resurslaridan ajratilgan holda, ba'zan esa kishilarning shaxsiy boyliklarini berishi orqali bir qancha vaqflar tashkil etilgan. Ayvansaroyiyni yozishicha, "O'zbeklar takyasi" Abdulloh Posho tomonidan barpo etilganidan so'ng bino, u joylashgan yer bilan birga takyaning birinchi shayxi bo'lgan Hoji Xoja Abdulloh Afandining mulki sifatida berilgan, keyin esa Hoji Xoja tomonidan Naqshbandiya tariqati a'zolariga vaqf qilingan. Usmonli davlatida bir vaqf qonuniy ravishda tashkil etilishi va uning korporativ ma'noda shakllanishi uchun vaqfnomasi (vaqf nizomi) tuzilib, mahkama ro'yxatidan o'tkazilishi kerak edi. Shu ma'noda, Abdulloh Poshoning mulkiga aylantirilgan "O'zbeklar takyasi" uchun Hoji Xoja Abdulloh Afandi tomonidan vaqf tashkil qilingan bo'lsa, vaqf hujjati o'rnida vaqfnoma yoki birorta qonuniy hujjat bo'lishi kerak. Tadqiqot doirasida, Usmonli davlat arxivlari boshqarmasi (BOA) va Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi (VGMA) fondlarida Hoji Xoja Abdulloh Afandining vaqf qurganligini ko'rsatadigan hech qanday vaqfnoma yoki hujjat topilmadi. Qolaversa "O'zbeklar takyasi"ga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham bunday hujjat ko'rilmagan.

Boshqa tomondan, "O'zbeklar takyasi" asoschisi Abdulloh Poshoga tegishli hijriy 1168-yil jumod-ul-avval oyining 14-kuni (milodiy 1755-yil 27-fevral) sanali vaqf hujjati mavjud¹. Abdulloh Posho, Uskudarning Mayors dahasida joylashgan Sulton IV Mehmed davrida (1648–1686) miriy² maqomida bo'lgan, keyinchalik shaxsiy mulk holiga keltirilgan bir fermanni sotib olib, bu fermanni va uning yaqinida Uskudardagi Nalchaji Xalil Afandi takyasi uchun qurilgan boshqa binolarni naqd ming qurush (tanga) bilan birga vaqf qilgan. Abdulloh Poshoning ushbu vaqfnomasida "O'zbeklar takyasi" haqida hech qanday so'z yuritilmagan va takyaga birorta mablag' ajratilmagan.

Takyaning qurilgan paytidagi jonli guvohlaridan biri bo'lgan Ayvonsaroyiyni takya 1166 (1752–1753) yilda qurilgani va vaqt o'tishi bilan kengayib katta dargohga aylangani haqidagi qaydlar bo'lishiga qaramay, shuningdek "O'zbeklar takyasi"ning O'zbekistondan kelgan hojilar vaqtinchalik istiqomat qilgan joy sifatida tanilganiga qaramay vaqf aloqasi o'rnatilmagani, boshqacha aytganda vaqfnomasi yo'qligi takya faoliyatining qanday moliyalashtirilgani haqida jiddiy savol tug'diradi. "O'zbeklar takyasi" Ayvansaroyiy aytganidek, 1171 (1757–1758) yilda Chaprastli Hasan Ag'aning takya xarajatlarini o'z zimmasiga olgani singari xayrsevarlar yoki Naqshbandiya tariqati a'zolari tomonidan moliyalashtirilgan edi. Yoki bu holat takya uchun vaqfnoma (vaqf nizomi) tashkil etilgan bo'lsa ham arxiv hujjatlarida aks etmagan norasmiylik bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Uskudar qozisi Sharifzoda Mehmed Sharifning hijriy

Tarihi Eserleriyle Üsküdar. – Istanbul: Uskudar hokimligi, 2017. – 236 s.; Mustafa Alkan. Osmanlı Devleti'nde Özbek Tekkeleri. *Yitik Hafızanın Peşinde Buhara Konuşmaları.* muharrir: Mehmet Dursun Erdem v.b. – Istanbul: Pruva nashriyoti, 2019. – S. 264–265; Hur Mahmut Yüzer. Üsküdar "Özbekler Tekkesi" / *Antik Çağ'dan XXI. Yüzyıla Büyük İstanbul Tarihi.* 5-jild. – Istanbul: İBB Kültür A.Ş.-TDV İSAM, 2015. – S. 277.

¹ Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi (VGMA). Daftari raqami: 627, 57-sahifa, 25-tartib raqami.

² Usmonli davlatida davlat mulki bo'lgan, biroq ishlatish huquqi foydalanuvchilarga berilgan yer.

1199-yil 27-zulqa'da kunida (1785-yil 1-oktabr) chiqargan farmoni "O'zbeklar takyasi"ning bu institutsional noaniqlik holatiga usmonli turkchasi bilan oydinlik kiritadi:

Qudratli davlatga kaminaning arzi shunday-ki, Uskudar shahri (tumani)dagi Xoja Hasno Xotun mahallasidagi Sulton tepasi nomli bir yerda joylashgan naqshbandiy shayxlaridan bo'lgan va Hoji Xoja nomi bilan tanilgan shayx Sayyid Abdulloh Akbar o'z tasarrufidagi 13 do'num yerda bir dargoh, besh vaqt, juma hamda ikki hayit namozlarini o'qish uchun bir jome' masjid hamda Naqshbandiya tariqati vakillari, shoirlar uchun bir uy qurib, ichida tariqat vakillari va kambag'al musulmonlarga yegulik ulashar edi. Nomi tilga olingan shayx farzand ko'rmay bu dunyoni tark etdi va uch nafar ayoli beva qoldi. Takyasiga shoirlar joylashdi, aslida esa vaqf sifatida ularga tegishli emasdi. [Shu bois,] ahli ayoli va boshqa yaqin insonlari yo'qligi uchun nomlari yuqorida tilga olingan shayxning ma'naviy farzandi shayx Mahmedni mazkur takyada Naqshbandiya tariqati marosimlarini o'tkazish va marhum shayxning ahli ayoliga nafaqa tayinlash orqali bu takyaga shayx etib tayinlashni so'raymiz.

1199-yil zulqa'da oyining 27-kuni qog'ozga tushirildi.

Sharifzoda Muhammad Sharif

Uskudar qozisi¹.

Uskudar qozisi tomonidan tayyorlangan "O'zbeklar takyasi" shayxining vafotidan keyin yangi shayxning tayinlanishi bilan bog'liq ushbu hujjat "O'zbeklar takyasi"ning korporativ tuzilmasi haqida muhim ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Hujjatda "O'zbeklar takyasi"ning Naqshbandiya tariqatiga mansubligi ta'kidlanganidan so'ng, Hoji Xoja nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi shayxi ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbar bo'lganligi haqida ma'lumot kiritilgan. Ko'rib chiqilayotgan hujjatning hoshiyasida takyaning birinchi shayxining ismi ota ismi bilan birga "ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbar bin as-Sayyid Asadulloh al-O'zbekiy" deb to'liq qayd etilgan. Hujjatdan aniqlanayotgan yana bir muhim ma'lumot shuki, "O'zbeklar takyasi" o'n uch dōnūm (13 dōnūm = 130 sotix) yerda besh vaqt namoz bilan birga juma va hayit namozlari o'qiladigan masjid hamda naqshbandiy darveshlar² istiqomat qiladigan binolardan iborat bo'lgan.

Hujjatda Uskudar qozisi tomonidan "O'zbek takyasi"ga hech qanday vaqfdan ajratilgan mablag' yo'qligi, takyaning birinchi shayxi Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbarning farzandsiz vafot etgani, ortda uch xotini qolganligi qayd etilgan. Shuningdek hujjatda bo'sh qolgan takya po'stnishinligiga Shayx Mehmed ismli shaxsni tayinlash taklif qilingan. Uskudar qozisining taklifi avvaliga Shayxul-islom Durrizoda as-Sayyid Mehmed Orifga bildirilgani, uning "qaroriga ko'ra tayinlanishi joizdir" degan ishorasi bilan ma'qullangani, so'ngra 1199-yilning 1-zulhijja (1785-yil 5-oktabr) kuni shayx sifatida tayinlangani qayd etiladi. Hujjatda "O'zbeklar takyasi"ning vaqf qaydi yo'qligi haqidagi ma'lumot berilgan, ayni ma'lumot shu hujjatning hoshiyasida "Anadolu muhasabasida (buxgalteriya) mazkur takyaning qaydi topilmadi" deb takrorlangan. Shu

¹ Usmonli arxivi (BOA), *Cevdet Evkaf [C.EV]*, № 472/23887; bu va bundan keyingi usmonli turk tilidagi matnlarni Bahodir Musametov tarjima qilgan.

² darvesh – biror shayxga bay'at qilgan va sayru sulukini davom ettirayotgan kishi, aynan murid, solik bilan ma'nodosh. Qarang: Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqol, 1999. – B. 69.

bilan bir qatorda “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi Abdulloh Akbar takyaning shayxi, imom-xatibi bo‘lganligi, u 1171-yil 11-jumod-ul-avval (1758-yil 21-yanvar) kuni tayinlangani, bu vazifalari evaziga Uskudarda tashkil etilgan Sobiq Zarbxona Emini Abdulloh Afandi masjidi fondidan unga har kuni 7 aqcha ajratilgani haqida ma’lumot aks etgan¹.

Bu ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, “O‘zbeklar takyasi” 1166 (1752–1753) yilda qurilganidan keyin birinchi shayx Abdulloh Akbar Afandi vafot etgan 1785-yilga qadar vaqf yozuvi bo‘lmagan. Bu davrda takya shayxi Abdulloh Akbar Afandi o‘z vazifalari evaziga Sobiq Zarbxona Emini Abdulloh Afandi masjidi fondidan unga ajratilgan kunlik 7 aqcha maosh bilan shayx, voiz va imomlik faoliyatini amalga oshirgan. Bu jihatdan olib qaraganda “O‘zbeklar takyasi” – birinchi shayx Abdulloh Akbar Afandi vafot etishiga qadar (o‘ttiz yildan ortiq faoliyat yuritgan bo‘lsa-da) davlat ro‘yxatidan o‘tmagan bo‘ladi. “O‘zbeklar takyasi”ning ro‘yxatga olinmaganlik holati ushbu tadqiqotimizga ham manba bo‘lgan 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasidagi “al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad vaqfnomasi” bilan tugallanadi va takya rasmiy qayddan o‘tib, o‘zining korporativ identifikatoriga ega bo‘ladi.

“O‘zbeklar takyasi”ning rasmiy institutsiyalashuvi:

Al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi vaqfnomasi

Bir vaqfning ta’sis hujjati va huquqiy asos hujjati bo‘lgan vaqfnomalarning har biri o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lib, umuman olganda vaqfning maqsadi, ushbu maqsadga muvofiq xayriyaga bag‘ishlangan mulklarni va vaqfning ishlash shartlarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, har bir vaqfnomaning hajmi va shakliy xususiyatlari bir-biridan farq qilishi mumkin. Biroq, umuman olganda, saljuqiylar, bekliklar va usmonlilar davrlaridan saqlanib qolgan vaqfnomalar misolida aytish mumkinki vaqfnomada vaqfni ro‘yxatdan o‘tkazish va tasdiqlash iboralari, hamd-salavot / duo qismlari, vaqf tavsifi, xayriya qilingan / mahrum etilgan xayriya fondlari va jamg‘arma daromadlarining bayoni, vaqf boshqaruvi, nazorati va ishlatish shartlarining ko‘rsatilishi, huquqiy ta’sis qoidalari, sana va guvohlar bo‘limlaridan iborat.

Uskudar “O‘zbeklar takyasi”ning ta’sis nizomi bo‘lgan 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasidagi “al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad vaqfnomasi” Vaqflar Bosh boshqarmasi arxivida, 578-raqamli daftarning 199–200 sahifalarida 58 tartib raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan². 28 qatordan iborat vaqfnoma matnidan tashqari matn ustida vaqfnomani ro‘yxatga olish yozuvi, vaqfnoma matnining oxirida esa guvohlar qismi mavjud. Vaqfnoma qayd etilgan sahifaning pastki qismida vaqfnomaning vaqf daftarchasiga qayd etilishini umumlashtiruvchi bayonnoma mavjud.

¹ BOA, C.EV, № 472/23887.

² VGMA, Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami.

Vaqfning nomi va tartib raqami. Vaqfnomaning boshida vaqfning nomi vaqf kitobidagi tartib raqami bilan birga 58- *Vaqfi Zoviyayi O'zbekiyayi Marhum Hoji Xoja dar Mahallayi Xoja Hasno* sifatida qayd etilgan. Vaqfnoma orqali korporativ identifikatorga ega bo'lgan "O'zbeklar takyasi" usmonli rasmiy yozuvlarida *Marhum Hoji Xoja O'zbekiya zoviyasi vaqfi* nomi bilan atalgan. Quyida vaqfnomaning tegishli qismida aytib o'tilganidek, vaqfning asoschisi al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad ismli shaxs bo'lsa-da, vaqf tashkilot sifatida u yerdagi birinchi shayx Hoji Xoja nomi bilan atalganligi ayon bo'lmoqda.

Ro'yxatga olish va tasdiqlash bayonotlari. Vaqfnomalarda ushbu vaqf hujjati qonuniy nazorat qilinganligi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi ro'yxatga olish va tasdiqlash ifodalari bilan bildirilgan. Ushbu bo'limda vaqf tashkil etilgan ma'muriy hududning qozisi, noibi yoki vaqfnomani tasdiqlash vakolatiga ega bo'lgan vakolatli shaxsning ismi odatda ko'rsatiladi:

Unda vaqf va ro'yxatga olishga oid narsalar mavjud bo'lib, mening huzurimga kelgan. Men uning to'g'riligini va majburiy ekanini hukm qildim, sharaqli va aziz avlodlardan bo'lgan imomlar orasidagi ixtilofni bilgan holda. Men, Subhanahu va Taolo Zotga muhtoj bir bandaman, Abdulkarim – vaqf ishlarini ko'rishga mas'ul bo'lgan kishi. (Alloh tomonidan) mag'firat qilingan bo'lsin!

"O'zbeklar takyasi" ta'sis vaqfnomasining boshidagi tasdiq ifodalaridan ma'lum bo'lishicha, vaqfnoma vaqflar inspektori Abdulkarim tomonidan tekshirilgan va vaqfnoma mazmuni amaldagi qonunchilikka muvofiqligi tasdiqlangan.

Duo / Da'vat (hamd / salovat). Vaqfnomalarning kirish qismlarida Allohga hamdu sano jumalari, Payg'ambar alayhissalomga salovot va salomlar bilan birga, yaxshilik qilish va sadaqa berishning fazilatlarini bayon etuvchi, vaqf tashkil etishning ma'naviy asosi bo'lgan oyat va hadislar ham o'rin oladi. Vaqf asoschisining maqomi va tashkil etilgan vaqfning katta-kichikligi ushbu qismning uzunligi yoki qisqaligini belgilab beradi.

"O'zbeklar takyasi"ning vaqfnomasida bu qism juda qisqa qilib, Alloh taolaga hamd va payg'ambarga salovot va salomlar bilan cheklangan:

Barcha hamdu sanolar olamlarning Parvardigori Alloh taolaga bo'lsin. Salovatu salomlar habibimiz va shafokatkorimiz Muhammad Mustafoga, uning oilasi va barcha sahobalariga bo'lsin!

Voqif, ya'ni vaqf asoschisini tanishtirish. Vaqfnomalarda duo qismlaridan keyin "ammâ ba'd" iborasi bilan vaqfnomaning yozilishiga sabab bo'lgan vaqfning ta'sischisi tanishtirilgan qism keladi. Bu qismda vaqf ta'sischisining ismi, otasining ismi, qayerdanligi, kasbi, unvoni va taxalluslari yoziladi.

"O'zbeklar takyasi"ning vaqfnomasida vaqf ta'sischisining ismi, ota ismi va kasbi quyidagicha ko'rsatilgan:

¹ Arab tilidagi bu matnni Javohir Zafarzoda tarjima qilgan.

Ammâ ba'd; işbu kitâb-ı sıhhat-nisâbın tahrîr ve inşâsına bâdî oldur ki ashâb-ı hayrât dan ve tüccâr-ı zevi'l-iktidârdan el-Hâc Halil Ağâ ibn Ahmed Efendi meclis-i şer'-i şerîf-i lâzimü't-teşrîfde zikr-i âti vakfına li-ecli't-tescîl mütevellî nasb olunan Şeyh el-Hâc Abdulğafûr Efendi ibn Mehmed Âlim mahzarında ikrâr-ı sahih ve i'tirâf-ı sarîh idüp...

Vaqfnomada vaqf ta'sischisi Xalil Og'a ibn Ahmad Afandi nomi oldidagi "tüccar-i zevi'l-iktidâr" iborasidan uning savdo-sotiq bilan shug'ullangani va iqtisodiy jihatdan boy bo'lgani tushuniladi. Ta'sischi Xalil Og'a haj farzini ham amalga oshirgani uchun "al-Hoj" deb ta'riflangan. Ushbu qismda vaqfning tashkil etilishida huquqiy element bo'lgan va vaqfnomaning keyingi qismida nomi yana tilga olinadigan ro'yxatga olish mutavallisi Shayx al-Hoj Abdulğ'afur Afandi ibn Mehmed Olim nomli kishi tilga olinadi. Vaqfnomada ro'yxatga olish mutavallisi sifatida tilga olingan Abdulğ'afur Afandi ayni paytda "O'zbeklar takyasi"ning shayxi hamdir.

Mavquf. Atama jihatidan *mavquf* vaqf ta'sischisiga tegishli bo'lib, endilikda xayriya qilinayotgan ko'char yoki ko'chmas mulkni anglatadi. *Mavquf*, vaqf maqsadini amalga oshirish uchun xayriya shaklida berilgan ko'chmas mulk bo'lishi mumkin yoki vaqf maqsadi bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan daromad shaklidagi ko'char va ko'chmas mulk bo'lishi mumkin.

O'zbeklar takyasining vaqfnomasida Uskudardagi Sulton tepaligidagi Xoja Hasno Xotun mahallasida joylashgan, vaqfnomada chegaralari va xususiyatlari aniq ko'rsatilgan mulklar vaqf asoschisi Xalil Og'a ibn Ahmad Afandi tomonidan bag'ishlanganligi bildirilgan. Vaqf ta'sischisi Xalil Og'a quyidagi mulklarni vaqf qilgan, shuningdek u o'zi tashkil etgan vaqfga daromad keltiruvchi biror narsa vaqf qilmagan:

Medîne-i Üsküdar'da Sultan Tepesi nâm mahalde Hâce Hesnâ Hâtun Mahallesi'nde vâki' bir tarafdan Şeyhülislâm-ı esbâk merhûm Mirzazâde es-Seyyid Mehmed Efendi vereseşi bağı ve bir tarafdan Kuzguncuk Karyesi'ne giden tarik-i âmm ve bir tarafdan harâb bağı ve bir tarafdan Kara Kethüdâ bağçesine giden tarik-i âmm ile mahdûd dâhiliyede fevkânî üç bâb oda ve dîvân hâne ve kenîf ve abdest hâne ve tahtânî bir matbah ve hâriciyede fevkânî iki bâb oda ve dîvân hâne ve tahte's-semâ ve tahtânî iki bâb meydân odası ve üç bâb dervîşân odası ve kenîf ve ahur ve kömürlük ve eşcâr-ı müsmire ve gayr-i müsmireli kebîr bağçe ve bağçe-i mezkûra muttasıl kürûm-ı mağrûseli bağ ve bağçe derûnunda bir harâb köşk ve bi'r-i mâ' ve sâir müştetilât-ı ma'lûmeyi hâvî zâviye ta'bîr olunur bir bâb mülk menzîlimi bi-cümleti mâyeştemiluhû ve yahvihî hasbeten lillâhî'l-âlim ve taleben li-vechi'l-kerîm vakf-ı sahîh-i müebbed ve habs-i sarîh-i muhalled ile vakf ve habs idüp...

Vaqf ta'sischisi Xalil Og'a o'zining Uskudarning Xoja Hasno Xotun tumanidagi Sulton tepaligida joylashgan, chegaralari Mirzazoda bog'i, Quzg'unjuq qishlog'iga olib boradigan yo'l va Qarakatquda bog'iga boradigan yo'llarga tutashgan hovlisini va hovli ichidagi mulklarini vaqf qilib bergan. Vaqf qilingan va zoviya deb atalgan mulklar quyidagilardir:

– birinchi qavatda oshxona, yuqori qavatda uchta xona, katta so'ri (devonxona), hojatxona va tahorat xonasi bo'lgan ko'shk binosi;

- ko'shkning tashqi tomonida ikki qavatli: pastki qavatda ikki maydonxona, yuqori qavatda ikki xona, bir so'ri (devonxona) va chordoq qavatidagi xonalar;
- darveshlar uchun uchta xona;
- hojatxona;
- omborxona va og'ilxona;
- mevali va mevasiz daraxtlarga ega katta bog';
- bu bog'ga tutash uzumzor;
- bog'dagi xaroba holdagi ayvon;
- quduq
- va boshqa yordamchi binolar.

Mashrutun-lah / Vaqfdan foydalanuvchilar. *Mashrutun-lah* atamasi vaqf ta'sischisi tomonidan vaqfdan foydalana oladigan kishilarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ta'sischi vaqf qilingan narsalardan kim, qachon, qanday va qay yo'sinda foydalana olishini belgilashi va cheklab qo'yishi mumkin.

Vaqfdor Xalil Og'a zoviya deb atalgan va o'zi vaqf qilgan mulkni ishlatish huquqini va takyada yashash huquqini vaqf tuzilgan paytda "O'zbeklar takyasi" shayxi bo'lgan Abdulg'afur Afandiga bergan. U zotning vafotidan keyin shayx bo'ladigan kishilar va Movaraunnahrda O'zbek viloyatining Samarqand shahridagi Qalandarxona mahallasidagi o'zbek darveshlariga foydalanishni mumkin qilib belgilab qo'ygan. Darhaqiqat, bu maxsus belgilov vaqfning nomlanishida ham o'z aksini topdi va vaqf nomi *Zoviya-i O'zbekiya* – "O'zbeklar takyasi" sifatida rasmiylashtirildi:

Menzil-i mezkûrda hâlâ bâ-berât-ı âlîşân Nakşibendiyye-i Özbekiyye şeyhi olan mezbûr Şeyh el-Hâc Abdulgâfûr Efendi hayâtında meşîhat-ı mezkûreye mutasarrîf oldukça menzil-i mezkûrda ile'l-vefât sâkin olup vefâtından sonra her kim zâviye-i mezkûrede bâ-berât-ı âlîşân şeyh olur ise zâviye-i mezkûrede sâkin ola ve zâviye-i mezbûrede şeyh olan kimesneden mâ'adâ Mâverâünnehir'de Özbek vilâyetinde Semerkand kasabasında Kalenderhâne Mahallesi ahâlisinden müteehhil olmayup mücerred olan fukarâ-i Özbekiyye dervîşânı menzil-i mezkûrda sâkin olalar...

Tarjimasi: *Tilga olingan manzilda oliy barot ila Naqshbandiy o'zbeklar shayxi hisoblanmish mazkur shayx Xoji Abdulg'ofur Afandi o'z hayoti davomida mazkur zoviya shayxi bo'lib qoladi va istiqomat qiladi. Vafotidan so'ng esa kimki oliy barot ila ushbu zoviya shayxi etib tayinlansa, ushbu zoviyada istiqomat qilishi mumkin. Nomi tilga olingan zoviyada shayx bo'lgan kishidan tashqari Movarounnahrdagi O'zbeklar viloyatining Samarqand shahrida joylashgan Qalandarxona mahallasidan bo'lgan oilali bo'lmagan, aksincha yolg'iz yashovchi (bo'ydoq) kambag'al o'zbek darveshlari nomi tilga olingan manzilda istiqomat qilishlari mumkin...*

Vaqfning boshqaruv va nazorat shartlari: Tavliyat va nazorat. Vaqfnoma shartlariga muvofiq vaqf boshqaruvi vasiylar tomonidan amalga oshiriladi. Vaqfning eng vakolatli boshqaruvchisi bo'lgan mutavalli vasiy, vaqfnomada tayinlangan nozir tomonidan nazorat qilinishi, tekshirilishi mumkin.

“O‘zbeklar takyasi” vaqfning asoschisi Xalil Og‘a tirikligi paytida o‘zini vaqfning vasiysi etib tayinlagan va vaqf shartlarini o‘zgartirish vakolatini o‘z zimmasiga olgan¹.

Vaqfnoma shartiga ko‘ra, vasiylik Xalil Og‘a vafotidan keyin meros tartibiga ko‘ra Xalil Og‘aning farzandlariga o‘tadi. Vasiylik Xalil Og‘aning farzandlari orasidan eng munosibiga, kattasiga beriladi. Agar nimadir bo‘lib, vaqfdor Xalil Og‘aning nasabi uzilib, Xalil og‘a avlodlaridan vasiylik qiladigan kishi bo‘lmasa, “O‘zbeklar takyasi” shayx va darveshlari orasidan ishonchli vasiy saylanadi va vaqf nozirining roziligi bilan vasiylik lavozimini egallashi mumkin bo‘ladi.

Vaqfnomaga ko‘ra, vaqfning nazorati, tekshiruvi o‘sha davr shayxulislomiga (*shayxu mashoyixil-islom va mufti'l-an'omning oliy nazoratlari ostida*) yuklangan. Vaqf ta'sischi va ayni paytda vaqf vasiysi bo‘lgan Xalil Og‘a vaqf uchun belgilagan shart-sharoitlarni bir kun kelib amalga oshirish imkoni bo‘lmay qolsa, vaqfini yo‘qsil musulmonlar uchun sarflanishi kerakligini vaqfning sharti sifatida belgilagan.

... *ve vakf-ı mezkûr şeyhu meşâyihî'l-islâm ve müftî'l-enâm hazretlerinin sâye-i nezâret-i aliyyelerinde âsûde ola ve tevliyet-i vakf-ı mezkûra lâbis-i libâs-ı hayât oldukça ben mutasarrîf olup vefâtımdan sonra evlâdımın ve evlâd-ı evlâdımın ve evlâd-ı evlâd-ı evlâdımın batnen ba'de batnin erşedi mütevellî ola ve ba'de inkırâzî'l-evlâd tevliyet-i mezkûre nâzır-ı müşârun-ileyh hazretleri re'y-i âlîleriyle zâviye-nişîn olan şeyh ve dervîşânın muhtârları emîn ve müstaklîm bir kimesne m³tevellî ola ve şurût-ı mezkûrenin tebdîl ve tağyîri merraten ba'de uhrâ yedimde ola ve mürûr-ı ezmîne ile şurût-ı mezkûreye ri'âyet müte'azzire olur ise vakf-ı mezkûr mutlaka vakf-ı fukarâ-yı müslimîn ola deyu ta'yîn-i şurût ve tebyîn-i kuyûd birle...*

Tarjimasi: ...mazkur vaqf mashoyixul-islom shayxi, muftiy hazratlarining oliy nazorati soyasi ostida osuda bo‘lgay, hamda nomi tilga olingan vaqfni boshqarish ishlariga men mas‘ul bo‘laman. Vafotimdan keyin farzandlarimdan, farzandlarimning farzandlaridan, farzandlarimning farzandlarining farzandlaridan eng taqvolisi boshqaruvchi bo‘lgay. Nasl to‘xtab qolgan taqdirda esa nomi tilga olingan vaqf boshqaruviga shayx hazratlarining vasiyatlariga binoan zoviya shayxlari va darveshlari ishonchli deb hisoblagan kishi tayinlangay. Tilga olingan vaqf hujjatini bir necha marta o‘zgartirish mumkin emas. Zamonlar o‘tishi bilan qayd etilgan shartlarga rioya qilish uzrli sabablar bilan mumkin bo‘lmay qolsa, nomi tilga olingan vaqf to‘laligicha musulmon kambag‘allar vaqfi bo‘lsin deb tayinladim...

Vaqfning ta'sis etilishi: taslim-tasallum (oldi-berdi) va vaqfning zaruratini aniqlash. Usmonli davlati vaqf qonunchiligi hanafiy mazhabi qoidalariga asoslangan va bu qoidalar boshqa vaqf amaliyotlarida bo‘lganidek vaqfnomalarda ham o‘z aksini topgan. Hanafiy fiqhi asoschisi Imom Abu Hanifa va uning talabalari Imom Muhammad va Imom Abu Yusufning vaqf ta'sis etilishi, vaqfdan voz kechish,

¹ Zero, vaqfdor Xalil Og‘a bir muncha muddat o‘tgach Uskudar mahkamasiga murojaat qilib, vaqf shartlarini o‘zgartirgan. “O‘zbeklar xonaqohi”ning vaqfdori Xalil Og‘a vaqfnomada dastlab O‘zbekistonning Samarqand shahrining Qalandar mahallasidan bo‘lgan darveshlargina qolishi mumkinligini belgilab qo‘ygan bo‘lsa, keyinchalik bu shartini o‘zgartirib, nafaqat naqshbandiy o‘zbek darveshlari, balki boshqa naqshbandiy darveshlari ham qolishi mumkinligini qayd ettirgan. Hijriy 1203-yil 11-jumod-ul-oxir (1789- yil 9- mart) sanasidagi hujjatga qarang: BOA, Istanbul muftiyliqi Avqofi Humoyun inspeksiyasi [IMUF-EHMM], № 237, 86.

vaqfning mustahkamligi va zarurligi kabi masalalardagi turli qarashlari vaqfnoma matnlarida o'z ifodasini topgan va vaqfning huquqiy ta'sis etilganini e'lon qilgan qozilar ushbu fikrlarga muvofiq ravishda qarorlar qabul qilgan va vaqflarning ta'sis etilishini rasmiylashtirgan.

“O'zbeklar takyasi”ning vaqfnomasida ta'sischi Xalil Og'a va vaqfni ro'yxatga olgan mutavalli o'rtasidagi *taslim-tasallum* (oldi-berdi / rozilik) bitimi vaqfnomaga kiritilgan. Xalil Og'a mazkur mulklarni vaqf qilganini qayd etib, vakil qilib tayinlagan “O'zbeklar takyasi” shayxi Abdulg'afur Afandiga topshirganidan keyin Imom Abu Hanifaning qarashlari asosida vaqfdan voz kechganini ma'lum qilgan va vaqf qilingan mulklarini qaytarib olishni xohlagan. Vakil Abdulg'afur Afandi esa, Imom Abu Yusuf va Imom Muhammadning fikrlarini dalil qilib keltirgan va vaqfnoma tuzilganidan va vaqf mulki topshirilgandan keyin Xalil Og'aning vaqf qurishdan voz kechishi mumkin emasligini ta'kidlagan. Har ikki tomonni ham tinglagan qozi “*vakf-ı mezkûrun sıhhat ve lüzûmuna alâ kavli men yerâhu hükm-i sahîh-i şer'î ve kazâ-i sarîh-i mer'î eyleyüp vakf-ı mezkûr sahîh ve lâzım ve mütehattim olup nakz ve nakzını ve tebdîl ve tahvîli adîmü'l-ihitmâl oldu*” (tarjimasi: *nomi tilga olingan vaqfning to'g'riligi va qonuniyligi hamda bu vaqfni bekor qilmaslik va almashtirmaslik haqida qaror chiqardi*) degan ifodalar bilan vaqf ta'sisini amalga oshirishga hukm bergan va vaqf ta'sisini tugallagan:

... *menzil-i mahdûd-ı mezkûru mütevellî-i merk'ma teslîm ol dahi kabz ve tesellüm ve bi't-tevliye tasarruf eyledi didükde gıbbe't-tasdikî ş-şer'î vâkıf-ı merk'm semt-i vifâkdan cânib-i şikôka âzim olup vakf-ı akar mefhâr-ı eimme-i kibâr üstâdü'l-eimmeti'l-müctehidîn Ebû Hanîfe Nu'mân bin Sâbit el-Kûfî âmelehullâhu te'âlâ bi-lutfihi'l-celî hazretleri nezd-i âlîlerinde sahîh lâkin gayr-ı lâzım olmakla vakf-ı mezkûrden rüçû' ve mevk'f-ı merk'mu ke'l-evvel m'lk'ıme istirdâd iderim didükde mütevellî-i merk'm dahi cevâb-ı bâ-savâba tasaddî idüp egerçi hâl vâkıf-ı merk'mun takrîr-i meşrûhu üzeredir lâkin İmâm Ebû Yûsuf hazretleri katında vâkıf mücerred vakaftu dimekle ve İmâm Muhammed hazretleri indinde teslîm ile'l-mütevellî bulunmakla vakf-ı sahîh ve İmâmeyn-i müşârun-ileyhimâ hazretlerinin re'y-i münîrlerinde sıhhat-ı vakfiyet lüzûmundan gayr-ı müfârik olmağla anların mezheb-i şerîfleri üzere vakf-ı mezkûrun lüzûmuna hüküm ricâ iderim deyu redd ve teslîmden imtinâ' birle hâkim-i muvakkı'-ı sadr-ı kitâb efendi hazretleri huzûrunda müterâfî'ân ve her biri mübteğâsınca fasl u hasme tâlibân olduklarında hâkim-i mûmâ-ileyh esbağallâhu ni'amehû aleyh dahi tarafeynin kelâmını teemmül ve cânib-i vakfı tercîh birle âlimen bi'l-hilâf vakf-ı mezkûrun sıhhat ve lüzûmuna alâ kavli men yerâhu hükm-i sahîh-i şer'î ve kazâ-i sarîh-i mer'î eyleyüp vakf-ı mezkûr sahîh ve lâzım ve mütehattim olup nakz ve nakzını ve tebdîl ve tahvîli adîmü'l-ihitmâl oldu...*

tarjimasi: ...*nomi tilga olingan [va] chegaralari belgilangan manzil nomi tilgan olingan mutavalliyga boshqarish uchun topshirildi, deganimizda nomi tilga olingan vaqf ta'sischisi [vaqf] qonuniy jihatdan tasdiqlanganidan so'ng rozilik manzilidan buzg'unchilik manzili tomon burildi [hamda] ko'chmas mulkni imomlar faxri, mujtahidlar' imomi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit al-Kufiy – Alloh taolo u kishini o'z lutfi bilan siylasin! – hazratlari nazdi oliyalarida “to'g'ri” lekin “lozim bo'lmagan” bir holda nomi tilga olingan vaqfdan qaytdi hamda nomi tilga olingan vaqf etib ta'sis etilgan mulklarni avvalgidek o'z mulkim sifatida qaytarib olaman deganida, nomi tilga olingan mutavalliy ham nomi tilga olingan vaqf ta'sischisining vaziyati izohga*

¹ *mujtahid* – ijtiħod huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy va huquqiy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs.

ehtiyoj sezsa ham, to'g'ri hukmga teskari yondashdi. Lekin Imom Abu Yusufga ko'ra, vaqf ta'sischisi bir marta "vaqf qildim" deyish bilan, Imom Muhammadga ko'ra esa mutavalliyga boshqarish uchun topshirish orqali to'g'ri vaqf deb hisoblanishi mumkin. Bu ikki imom hazratlarining fikrlariga ko'ra, vaqfning to'g'riligi shartidan ayrilish orqali ularning mazhablariga ko'ra, nomi tilga olingan vaqfning to'g'riligiga qaror qildim deyish orqali uni rad qilish yoki topshirishdan man qilish orqali qozi va kotib huzurida o'z haqlarini himoya qilganlarida qozi ikki tomonning so'zini eshitib, nomi tilga olingan vaqfning to'g'ri vaqf ekanligi borasida hukm chiqardi va shu tariqa bu vaqfni bekor qilish yoki boshqasiga almashtirish taqiqlandi...

Sana va guvohlar. Al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad tomonidan "O'zbeklar takyasi" uchun tuzilgan vaqfnomaning oxirida hijriy 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasi qayd etilgan. Vaqfnomaning guvohlari (shuhudul-hol) sifatida al-Hoj Muhammad Shokir Afandi, Mulla Ismoil ibn Hasan, Mustafo Og'a ibn Abu Bakr, Ismoil Halim Afandi ibn Ibromim, Hofiz Ahmad Afandi va ismlari yozilmagan boshqa shaxslar o'rin olgan.

Vaqfning mahkamada ro'yxatga olinishi va Anado'li buxgalteriyasida qayd etilishi. Al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad tomonidan "O'zbeklar takyasi" uchun tashkil etilgan vaqfning hijriy 1202-yil 7-rabi-ul-oxir (1788-yil 16-yanvar) sanasidagi vaqfnomasi, *vaqf noziri Abdulkarim* tomonidan tekshirilgan va uning tarkibining qonuniyligi tasdiqlangan va vaqfnomaga qayd etilgan.

Tashkil etilgan vaqf davlat va qonun oldida o'zining institutsional mavjudligini tasdiqlatish uchun mahkamadan ro'yxatdan o'tkazilishi kerak bo'lgan. Shu o'rinda mahkama hujjatlarida vaqf ta'sischisi al-Hoj Xalil Og'aning vaqfnoma tuzilgan kundan taxminan bir yarim oy o'tib Uskudar mahkamasiga murojaat qilganini ko'ramiz.

Uskudar shar'iy reestrda qayd etilgan 1202-yil 21-jumod-ul-avval (1788-yil 28-fevral) sanasidagi farmon mazmunidan bilib olganimizdek, vaqf ta'sischisi Xalil Og'a vaqfnoma bilan ro'yxatdan o'tish uchun Uskudar mahkamasiga murojaat qilgan va Uskudar qozisi Mehmed Emin Afandi vaqfnomani ko'rib chiqqan, vaqfning qonuniyligini va vaqf hujjatining mazmunini tasdiqlagan va ushbu vaqfnomaning Anado'li muhosaba (buxgalteriya) bo'linmasiga qayd qilinishini iltimos qilgan holda saltanat maqomiga yuborgan¹.

Uskudar mahkamasining talabidan bir kun o'tib, vaqfni ro'yxatga olish tartib-qoidalarini yakunlash va Anado'li muhosaba idorasiga qayd etish uchun farmon chiqarilgan va bu farmonga muvofiq vaqf ro'yxatga olinib qayd etilgan. Ushbu amaliyotlarni jamlovchi bayonnomalar vaqfnomaning ostida qayd etilgan².

¹ BOA, *Istanbul muftiyligi Shayxulislom shariat qayd daftarlari [ISTM.SSC]*, № 06.d.523, s. 59.

² VGMA, Daftar raqami: 578, 200-sahifa.

Xulosa

Tadqiqot doirasida “O‘zbeklar takyasi”ning tashkil etilishida o‘ta muhim o‘rin tutgan vaqfnomaning diplomatik elementlariga alohida to‘xtalib o‘tildi va vaqfnomaning mazmuni tahlil qilindi. Tadqiqotda mavjud manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, zarbxona emini va Marash hokimi vazifasida ishlagan Abdulloh Posho tomonidan 1752–1753 yillarda barpo etilgan “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi Shayx Abdulloh tomonidan vaqf tashkil etilgani haqidagi ma’lumotlar so‘rovi tashkil etildi va huquqiy jihatdan bunday vaqf mavjud emasligi arxiv hujjatlari asosida aniqlandi. Boshqa tomondan, hozirgi bilim dunyosida Ayvansaroyiy bergan ma’lumotlarga muvofiq “O‘zbeklar takyasi”ning birinchi shayxi Shayx Abdulloh ekani haqidagi ma’lumotlar, yana-da to‘g‘rilanib, uning to‘liq nomiga aniqlik kiritildi: *Sayyid ash-Shayx Abdulloh Akbar Afandi ibn Asadulloh al-O‘zbekiy*. Shu bilan bir qatorda tadqiqot doirasida, takyaning birinchi shayxi Abdulloh Akbar Afandiga 1758–1785 yillar oralig‘ida “Amini Zarbxonayi Sobiq Abdulloh Afandi” fondidan kuniga 7 aqchadan ajratilgani, “O‘zbeklar takyasi” uchun mustaqil vaqf ta’sis etilmagani va bu davrda institutsional tarzda qayd etilmagani ko‘rsatib o‘tildi.

“O‘zbeklar takyasi” uchun 1788-yilda al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi tomonidan vaqf tashkil etilgan va shu tariqa takyaga huquqiy maqom berilgan. Vaqfnoma shartlariga ko‘ra, “O‘zbeklar takyasi” Naqshbandiya dargohi bo‘lib, Samarqand shahrining Qalandarxona mahallasidagi darveshlarga xizmat ko‘rsatgan. Vaqf ta’sischisi Xalil Og‘a keyinchalik vaqf shartlarini o‘zgartirib, boshqa naqshbandiy darveshlariga ham takyada qolish huquqini beradi. Vaqfnomada 1752–1753-yillardan buyon xizmat qilganligi ma’lum bo‘lgan takya hovlisi va undagi binolar, tokzor, bog‘ va boshqa xo‘jalik inshootlari vaqf ta’sischisi al-Hoj Xalil Og‘aning mulki sifatida ta’riflanadi va bu mulklar Xalil og‘a tomonidan vaqf qilinganligi qayd etiladi. “O‘zbeklar takyasi” qurilgan yer, takya binosi va boshqa binolar qanday qilib vaqf ta’sischisi Xalil Og‘aning mulkiga aylangani haqidagi savol “O‘zbeklar takyasi”ning tashkil etilishi tarixidan javob topishi kerak bo‘lgan muhim masalalardan bo‘lib turibdi. Vaqfnomada faqat xayriya binolari ajratilganligi va ta’mirlash, darveshxona shayxlari va darveshlarining xarajatlari kabi vaqf moddiy ehtiyojlarini qoplash uchun hech qanday daromad keltiruvchi narsa vaqf qilinmaganligi, al-Hoj Xalil Og‘a tomonidan tashkil etilgan vaqfning haqiqatda mavjud bo‘lgani, lekin rasmiy hujjatlarda uchramagan biror vaqf manbai bor bo‘lishi mumkinligiga ishora qiladi.


Adabiyotlar

Arxiv manbalari


- BOA, Usmonli arxivi. *Cevdet Evkaf [C.EV]*, № 472/23887.
- BOA, Usmonli arxivi. *İstanbul Müftülüğü Evkaf-ı Hümayun Müfettişliği [IMUF-EHMM]*. № 237, 86.
- BOA, Usmonli arxivi. *İstanbul Müftülüğü Meşihat Defterleri Şer'iyeye Sicil Defterleri [İSTM.ŞSC]*. № 06.d.523, s. 59.
- VGMA, Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi (VGMA). Daftar raqami: 627, 57-sahifa, 25-tartib raqami: *al-Hoj Abdulloh Posho bin Mehmed Posho vaqfnomasi*.
- VGMA, Vaqflar bosh boshqarmasi arxivi. Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami: *al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad vaqfnomasi*.

Boshqa manbalar


- Mustafa Alkan. Osmanlı Devleti'nde Özbek Tekkeleri. / *Yitik Hafızanın Peşinde Buhara Konuşmaları*. Muharrir: Mehmet Dursun Erdem – Necip Fazıl Kurt – Özcan Güngör.– İstanbul: Pruva nashriyoti, 2019. – S. 248–285.
- Hâfız Hüseyin Ayvasarâyî. *Hadikatü'l-cevâmî'*. – İstanbul: Matbaa-i Âmire, 1281.
- Süleyman Beyoğlu. Millî Mücadele ve “O‘zbeklar takyasi. / *Üsküdar Sempozyumu I: 23-25 Mayıs 2003 - Bildiriler*, muharrir: Zekeriya Kurşun vb.. – İstanbul: Uskudar hokimligi, 2004. – 1 / 201–210.
- Abdullah Kılıç. *Tarihi Eserleriyle Üsküdar*. – İstanbul: Uskudar hokimligi, 2017.
- Erkan Övüç. 1341 Defterine Göre 1925'te Üsküdar Tekkeleri // *Tasavvuf: İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi*. 17 / 38 (2016). – S. 55–113.
- Üsküdar Tekkeleri Örneğinde Devlet Tekke İlişkileri*. Doktora Tezi. – Çanakkale: Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi, Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, 2022.
- M. Baha Tanman. Kalenderhâne. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul: TDV nashriyoti, 2001. – 24 / 249–250.
- O‘zbeklar takyasi. *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul: TDV nashriyoti, 2007. – 34 / 123–124.
- Salim Yorgancıoğlu. *Üsküdar Dergâhları*. Nashrga tayyorlovchi: Ahmet Yüksel Özemre. – İstanbul: Uskudar hokimligi, 2004.
- Hür Mahmut Yücer. Üsküdar “O‘zbeklar takyasi. *Antik Çağdan XXI. Yüzyıla Büyük İstanbul Tarihi. S / TU-TİZ*. – İstanbul: İBB Kültür A.Ş.-TDV ISAM, 2015.



Ilova 1. O‘zbeklar takyasining birinchi shayxi Ash-Shayx as-Sayyid Abdulloh Akbar vafotidan keyin bo‘sh qolgan takya po‘stninishligiga Shayx Mehmed ismli shaxsning tayinlanishi bilan bog‘liq Uskudar qozisi Sharifzoda Mehmed Sharifning 1199-yil 27-zulq‘a‘da (1785-yil 1-oktabr) sanasidagi qarori (BOA, C.EV, № 472/23887)



Ilova 2. O‘zbeklar takyasining ta’sis vaqfnomasi: al-Hoj Xalil Og‘a ibn Ahmad Afandi vaqfnomasi (VGMA, Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami)



Ilova 2. O'zbeklar takyasining ta'sis vaqfnomasi: al-Hoj Xalil Og'a ibn Ahmad Afandi vaqfnomasi (VGMA, Daftar raqami 578, 199-sahifa, 58-tartib raqami)